

**"O'ZBEK TILI LUG'AT TARKIBIDAGI ARABCHA QATLAM:
SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI"**

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi

IV bosqich talabasi

Ergasheva Mukarramxon

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek tili lug'at tarkibidagi arabcha o'zlashmalarning kirib kelish yo'llari va ularning tilimizda fonetik-semantik moslashuvi tadqiq etilgan. Maqolada arabcha leksemalarning bir qismi bevosita din va fan tili sifatida, asosiy qismi esa fors tili vositachiligida kundalik turmush leksikasi sifatida o'zlashgani asoslab berilgan. Shuningdek, arabcha cho'ziq unlilar va o'zbek tilida muqobili bo'lmagan undosh tovushlarning milliy til qonuniyatlariga ko'ra o'zgarishi hamda boshqa sharq tillaridan (xitoy, uyg'ur) kirgan birliklarning o'rni tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *arabcha o'zlashmalar, bevosita o'zlashish, bilvosit o'zlashish, fonetik moslashuv, semantik o'zgarish, lug'at tarkibi, sharq tillari.*

Аннотация: *В данной статье исследуются пути проникновения арабских заимствований в лексику узбекского языка и их фонетико-семантическая адаптация. В статье обосновано, что часть арабских лексем была усвоена непосредственно как язык религии и науки, а основная часть — через персидский язык как лексика повседневного быта. Также проанализированы изменения арабских долгих гласных и согласных, не имеющих аналогов в узбекском языке, согласно законам национального языка, а также роль заимствований из других восточных языков (китайского, уйгурского).*

Ключевые слова: *узбекский язык, арабские заимствования, лексический пласт, фонетическая адаптация, семантическая*

трансформация, словарный состав, этимология, персидское посредничество.

Annotation: *This article explores the ways Arabic borrowings entered the Uzbek vocabulary and their phonetic-semantic adaptation. The paper establishes that while some Arabic lexemes were adopted directly through religion and science, the majority entered as everyday vocabulary via the Persian language. Furthermore, the adaptation of Arabic long vowels and unique consonants into the phonetic system of the Uzbek language is analyzed, along with the influence of borrowings from other Eastern languages (Chinese, Uyghur).*

Keywords: *Uzbek language, Arabic borrowings, lexical layer, phonetic adaptation, semantic transformation, vocabulary, etymology, Persian mediation, Eastern languages.*

Kirish

O'zbek tili lug'at tarkibi asrlar davomida turli tillar bilan o'zaro aloqalar natijasida boyib kelgan. Ushbu jarayonda arab tili alohida va salmoqli o'rin egallaydi. O'zbek tili leksikasidagi arabcha o'zlashmalarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki xalqimizning madaniy va ilmiy tarixini yoritishda ham dolzarb ahamiyatga ega. Ayniqsa, arabcha so'zlarning o'zbek tili qonuniyatlariga moslashishi va ularning kirib kelish jarayonlarini (bevosita yoki fors tili orqali) aniqlash zamonaviy tilshunoslikning muhim masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbek tilidagi arabcha qatlam masalasi E.Begmatov, A.Hojiyev kabi taniqli tilshunoslar tomonidan umumiy tarzda tadqiq etilgan. Biroq, arabcha leksemalarning o'zbek tiliga o'zlashishidagi fonetik o'zgarishlar, xususan, cho'ziq va qisqa unilarning almashishi hamda o'zbek tilida muqobili bo'lmagan undoshlarning moslashish mexanizmlarini maxsus tahlil qilish hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Asosiy qism

O'zbek tili lug'atidagi arabcha leksemalarning oz qismigina bevosita arab tilining o'zidan olingan. Bunday o'zlashtirish asosan O'rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi, maktab-madrasalarda arab tilining din tili sifatida targ'ib qilinishi

bilan, eng muhimi – sharq olamida fan tili deb arab tilining qabul qilinganligi kabi omillar bilan bog‘liq. Demak, arab tilidan bevosita o‘zlashmalar asosan fanga va dinga doir leksemalarga to‘g‘ri keladi. Ko‘pchilik arabcha leksemalarning o‘zbek tiliga o‘zlashuvida fors tilining o‘rni katta. Asli bunday leksemalar oldin fors tiliga o‘zlashgan, keyingina o‘zbek tiliga o‘zlashtirilgan. Bunday yo‘l bilan o‘zlashgan leksemalar asosan kundalik turmushda uchraydigan narsa va hodisalarning nomlariga to‘g‘ri keladi.¹

Arabcha so‘zlar o‘zbek tiliga ko‘pincha aynan olinmay, ma'lum darajada o‘zlashtirib, o‘zbekchalashtirib, ko‘p hollarda o‘zbek tilining tovushlariga moslashtirib olingan. Ma'lumki, arab tilida uchta qisqa ovoz tovush (a, u, i) va shularning cho‘ziq shakli mavjud. Bulardan o‘zbek tili ovoz tovushlariga qisqa shakllari to‘g‘ri keladi, shunga ko‘ra o‘zbek tiliga olingan arabcha leksemalar tarkibidagi qisqa tovushlar jiddiy o‘zgarishga duchor bo‘lmagan. Hozirgi adabiy o‘zbek tili ovoz tovushlari qatorida cho‘ziq tovushlar yo‘q, shunga ko‘ra arab tilidan olingan leksemalar tarkibidagi cho‘ziq ovoz tovushlar odatda qisqa tovushlarga almashtiriladi. Arabcha leksemalarni o‘zlashtirishda ular tarkibidagi cho‘ziq a: tovushi asosan o‘zbekcha â tovushiga almashtirilganini alohida ta'kidlash lozim, chunki bu yerda tovushni faqat miqdoriy (cho‘ziqlik) jihatidagina emas, balki sifatiiy (lablanish) jihatidan ham sezilarli o‘zbekchalashtirish voqe bo‘ladi.

Arab tilining tovushlar qatoridagi bir qancha tovushlar o‘zbek tilining tovushlar qatorida yo‘q, shu sababli bunday arabcha tovushlar o‘zbek tilidagi eng yaqin muqobiliga almashtirilgan: ikkita t tovushi t tovushiga, uchta s tovushi s tovushiga, to‘rtta z tovushi z tovushiga almashtirilgan, faqat uchta x tovushidan xe tovushi harf bilan ta'minlanib, hoyi hutti va hoyi havvaz tovushlari bir tovushga (h) birlashtirilgan. Fors tilidan o‘zlashtirishlar ham tarixan salmoqli bo‘lgan. Fors tilidan o‘zlashtirilgan leksemalarda jiddiy tovush o‘zgarishlari sodir bo‘lmagan, chunki o‘zbek tili bilan fors tilining tovushlar qatori orasidagi farqlar u qadar katta emas: andisha, baland, gap, daromad, jon, zar, mayda, nam, ozoda kabilar.

Hozirgi adabiy o‘zbek tili lug‘atida boshqa sharq tillaridan o‘zlashtirilgan

¹ Sh.Rahmatullayev Hozirgi adabiy o‘zbek tili(darslik). Toshkent “Universitet” 2006. 107-108-b.

leksemalar ko‘p emas. Masalan, xitoycha öay- leksemasi rus tili orqali chay- (> choy-) shaklida, xitoycha lagman- leksemasi lag‘mon- shaklida, mantu leksemasi manti- shaklida uyg‘ur tili orqali o‘zlashgan.

Xulosa

Arabcha leksemalar o‘zbek tiliga ikki xil yo‘l bilan kirib kelgan. Bevosita o‘zlashmalar asosan fan va din sohalariga oid bo‘lsa, fors tili vositachiligida kirib kelgan so‘zlar ko‘proq kundalik turmush va ijtimoiy hayot voqeliklarini ifodalashga xizmat qilgan.

Arabcha so‘zlar o‘zbek tilining fonetik qonuniyatlariga to‘liq bo‘ysundirilgan. Xususan, arab tiliga xos cho‘ziq unlilar o‘zbek tilidagi qisqa muqobillariga almashtirilgan, o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan undoshlar esa (uchta s, to‘rtta z kabi) eng yaqin tovushlar bilan birlashtirilgan. Bu hodisa tilimizning o‘ziga xos talaffuz tizimini saqlab qolganini ko‘rsatadi.

O‘zbek tili nafaqat arabcha, balki fors, xitoy va uyg‘ur tillaridan ham so‘z qabul qilish orqali o‘z lug‘at boyligini muntazam oshirib borgan. Bunda har bir o‘zlashma milliy tilimizning ichki qonuniyatlariga ko‘ra shaklan va mazmunan qayta ishlangan.

Umuman olganda, arabcha o‘zlashmalar o‘zbek tilining lug‘at boyligini cheksiz boyitgan va bugungi kunda tilimizning ajralmas leksik qatlamiga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Rahmatullayev Hozirgi adabiy o'zbek tili(darslik). Toshkent "Universitet" 2006. 107-108-b.
2. Begmatov E. O'zbek tili leksikasi. – Toshkent: Fan, 1981.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
4. Madvaliyev A. (tahriri ostida). O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildlik). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.
5. Rasulova N. O'zbek tilidagi arabcha o'zlashmalar. – Toshkent: Fan, 1986.
6. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
7. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasi tarixidan. – Toshkent: Fan, 1977. (Xitoycha va boshqa o'zlashmalar tahlili uchun).